**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Rektor ____________ Sh.Sirojiddinov

2023-yil “ ” 28 - avgust

# “SHARQ TILLARI”

**fanining o‘quv dasturi (sillabusi)**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 110000 – Ta’lim |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili |

**Toshkent-2023**

| Fan/modul kodi 302SHT 2-3 8 | | Fan/modul turi Tanlov | | Ta'lim tili o'zbek | | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024 | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi fan/modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 4 | Fan: Sharq tillari (Fors tili) Modul: 1-modul. Fonetika va grafika. 2-modul. Morfologiya. | 4 | 4 | 60 | 0 | 0 | 60 | 0 | 60 | 120 |
| | **Jami:** | **4** | **4** | **60** | **0** | **0** | **60** | **0** | **60** | **120** |

## 1. FANNING MAZMUNI

Fanning **maqsadi** – talabalarga fors tilining nazariy asoslari, ularning asosiy grammatik kategoriyalarini o'rgatish, ilmiy va padagogik faoliyati jarayonida mazkur fandan foydalanish imkoniyatlarini oshirish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning **vazifasi** – talabalarda ilmiy axborot bilan ishlash ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish, o'qish, yozish, o'zbek tilidagi forsiy o'zlashmalarni tahlil qila olish, arab imlosidagi qo'lyozma, toshbosma asarlar, gazeta va jurnallarni o'qishga, ulardan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni olishga o'rgatish, joriy imloga tabdil qila olish va tahlil ko'nikmalarini shakllantirish.

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

"Sharq tillari" (Fors tili) fanini o'rganish orqali arab-fors yozuvining o'ziga xos xususiyatlari va fors tilining asosiy grammatik kategoriyalarini o'zlashtirish bilan bir qatorda eski o'zbek yozuviga oid bilimlarini ham yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birgalikda mazkur fanni puxta egallash natijasida matnshunoslik, manbashunoslik, xattotlik, tarix, arxeologiya, o'zbek tilining tarixiy grammatikasi, o'zbek tili tarixi va qadimgi turkiy tilga oid bilim va ko'nikmalarini boyitadi. Ma'naviy merosimiz hisoblangan qo'lyozma va toshbosma manbalarni o'qish, tahlil qilish hamda tadqiq etish ko'nikmalari shakllanadi va hozirgi o'zbek adabiy tilida uchraydigan forsiy o'zlashmalarni ilmiy tahlil qilish salohiyatiga ega bo'lish bilan



birga fanga daxldor bo'lgan nazariy hamda amaliy bilimlar haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'ladi***;

Arabiy yozuvda yozish va o'qiy olish, ijtimoiy mavzularda suhbatlasha olish, gazeta va jurnallarni mutolaa qilish, manbalar bilan ishlash, qo'lyozmalarni o'qish, o'zbek tilidagi forsiy o'zlashmalarni tahlil qila olish, ilmiy axborotlar bilan ishlash, ilmiy faoliyatlari jarayonida zarur bo'lgan asliy manbalardagi kerakli axborotlardan foydalanish ***malakasiga ega bo'ladi***.

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Mashg'ulotlar interfaol usullar yordamida olib boriladi. Mashg'ulotlar jarayonida **ta'lim texnologiyalari** (*keys-stadi, tarozi, dumaloq stol va boshqalar*), **interfaol metodlar** (*aqliy hujum, bumerang, zinama-zina va boshqalar*), **grafik organayzerlar** (*T jadvali, ven diagrammasi, insert, "BBB", klaster va boshqalar*) va **ta'lim strategiyalari** (*bilish, xotira, xos-tuyg'u va boshqa strategiyalar*) dan keng foydalaniladi. Dars mobaynida ko'rgazmali materiallardan va video materiallardan foydalaniladi.

## 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Talabalarning bilimini baholash va kreditlarni to'plash jarayoni O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**1) Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** o'tilgan mavzular asosida **yozma** shaklda o'tkaziladi.

Har bir talabaga bir savolnoma tarkibida beshtadan savol beriladi va har bir javob maksimal 1 (bir) balldan baholanadi. Savolnomadagi bitta savol nazariy, qolgan to'rtta savol amaliy tarzda belgilanadi.

**Yakuniy nazorat:** semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha **og'zaki** shaklda o'tkaziladi.

Har bir talabaga bir savolnoma tarkibida uchtadan savol beriladi va har bir javob maksimal 30 (o'ttiz) balldan baholanadi. Savolnomadagi bitta savol nazariy, qolgan ikkita savol amaliy tarzda belgilanadi. Har bir talaba uchun 3 (uch) daqiqa vaqt ajratiladi.

***Izoh:*** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

***Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.***

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2) Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI
### 4-SEMESTR

**1) Amaliy mashg'ulotlar**

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | | **1 – modul. Fonetika va grafika.** | |
| 1 | Fors tili haqida umumiy ma'lumot. | Fors tili bilan bog'liq zaruriy ma'lumotlar : Eron, fors yozuvi, tillar oilasi, dialekti, eroniy tillar oilasi, fors tilining taraqqiyot bosqichlari, o'zbek tiliga o'zlashgan forsiy so'z va so'z birikmalari. | 4 |
| 2 | Arab-fors alifbosida munfasil harflar. | Alifbo va munfasil harflarga oid ma'lumotlar : arab-fors alifbosi, arab yozuvining xususiyatlari, harf yasovchi unsurlar, shakldosh harflar, munfasil ya'ni bir tomonlama qo'shiluvchi harflarning bog'langan va bog'lanmagan shakllari hamda ularning xususiyatlari. | 4 |
| 3 | Arab-fors alifbosida muttasil harflar. | Muttasil ya'ni ikki tomonlama qo'shiluvchi harflarga doir ma'lumotlar : muttasil harflar, ularning alohida, so'z boshidagi, so'z o'rtasidagi va so'z oxiridagi shakllari hamda ularning xususiyatlari. | 4 |
| 4 | Fors tilining ba'zi fonetik xususiyatlari. | Fors tilining fonetik xususiyatlari : diftong, **ey** diftongining yozuvda va talaffuzda ifoda etilishi; **o'u** diftongining yozuvda va talaffuzda ifoda etilishi. | 4 |
| 5 | Fors tilidagi qisqa va cho'ziq unlilarning ifodalanishi. | Fors tilidagi unlilar haqida ma'lumot: fors tillidagi qisqa va cho'ziq unlilar, ularning yozuvda ifoda etilishi, "Zabar" (*fatha*),"zir" (*kasra*), va "pish" (*damma*) deb nomlanuvchi belgilar. | 4 |
| | | **2 – modul. Morfologiya** | |
| 6 | Ot kesimli sodda yig'iq gap. | Fors tilida gap, sodda gap, sodda yig'iq gap, kesim, kesikning turlari, ot kesim, ast bog'lamasi. Ko'rsatish olmoshlari. Ot kesimli sodda yig'iq gapda so'z tartibi. | 4 |
| 7 | So'roq gapning tuzilishi. | Intonatsiya, so'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari (*Oyo va magar so'roq yuklamari. Bale va naxeyr so'zlari.*) va so'roq so'zlar orqali so'roq gaplarning tuzilishi. | 4 |
| 8 | Bog'lamaning to'liq va qisqa shakllarining tuslanishi. | Ast bog'lamasi, uning to'liq shakli (*ast bog'lamasining to'liq shakli hast, uning mustaqil ma'nosi*) va qisqa shakllari hamda ularning imlo qoidalari. | 4 |
| 9 | Fors tilida izofa. | Izofa so'zi, uning ma'nosi, forsiy izofa (*aniqlovchi aniqlanmish va qaratqich qaralmish munosabati*) va uning ta'rifi, imlosi, o'zbek tilidagi qiyosi, o'zbek tiliga o'zlashgan forsiy izofalar. Izofada so'z tartibi. | 4 |
| 10 | Fors tilida ko'plik va izofa zanjiri. | Forsiy ko'plik va ularni hosil qiluvchi ho va on ko'plik qo'shimchalari, ularning imlosi, ishlattilishidagi farqlar; Arabiy ko'pliklar (*to'g'ri va siniq ko'plik*) va ularning yasalishi. Izofa zanjiri, uning o'zbek tilidagi qiyosi, izofa zanjirida kishilik va ko'psatish olmoshlari. | 4 |
| 11 | Fors tilida egalikning ifodalanishi. Miqdor va tartib sonlar. | Fors tilida egalik qo'shimchalari, ularning ifodalanishi, otlarning turlanishi, o'zlik olmoshi, mol so'zi va az on birikmasi. Fors tilida son (*adad*), ularning yozuvda ifodalanishi (*raqam bilan so'z bilan*), miqdor sonlar (*adod-e asli*) va tartib sonlar (*adod-e tartibi*). O'zbek tiliga o'zlashgan miqdor sonlar. | 4 |
| 12 | Fors tilida fe'l. O'tgan zamon aniq fe'li. | Fors tilida fe'l, fe'lning noaniq shakli, fellarning tuzilishiga ko'ra turlari, fe'l asoslari, | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | o'tgan zamon aniq fe'li, uning yasalishi, bo'lishli va bo'lishsiz shakllari. | |
| 13 | Fors tilida predloglar. | Fors tilida predloglar (*ho'ruf-e ezofe*), predloglarning tuzilishiga ko'ra turlari, asosiy, izofali va murakkab predloglar. | 4 |
| 14 | Fors tilida predloglar. | Asosiy (*ro, be, dar, az, bo, to, baroye*), izofali (*ru, zir, pahlu, po'sht, aqab, beyn, miyon, bolo, pey, sar, ...*) va murakkab (*izofali murakkab predloglar (dar bob, dar xo'sus, be vasile, be vosite, ...), izofasiz murakkab predloglar (roje be, oid be, pas az, pish az, ...)*) predloglar. | 4 |
| 15 | Matnlar tarjima qilish. | O'tilgan mavzularga doir matnlar o'qish, lug'atlar ustida ishlash, tarjima va tahlil qilish. | 4 |
| | | **Jami:** | **60 s.** |

**2) Mustaqil ta'lim ishlari**

| № | Mustaqil ta'lim mavzusi va topshiriqlarining nomi | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Fors tili haqida umumiy ma'lumot. | Fors tili : fors tili va uning tarixi, qaysi tillar oilasiga mansubligi, tayanch dialekti, eroniy tillar guruhi, fors tilining taraqqiyot bosqichlari.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 2 | Arab-fors alifbosida munfasil harflar. | Munfasil harflar, ularning xususiyatlari, yozuvda ifoda etilishi, mazkur harflarning so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida ifoda etilishi.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 3 | Arab-fors alifbosida muttasil harflar. | Muttasil harflar, ularning xususiyatlari, yozuvda ifoda etilishi, mazkur harflarning so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida ifoda etilishi.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 4 | Fors tilining ba'zi fonetik xususiyatlari. | Fors tilining fonetik xususiyatlari : diftong, ey diftongining yozuvda va talaffuzda ifoda etilishi; o'u diftongining yozuvda va talaffuzda ifoda etilishi.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 5 | Fors tilidagi qisqa va cho'ziq unlilarning ifodalanishi. | Fors tilidagi qisqa "a", "e" va "o'" unlilari hamda ularning yozuvda aks etishi.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| 6 | Ot kesimli sodda yig'iq gap. | Ot kesimli sodda yig'iq gap va unda so'z tartibi. Ko'rsatish olmoshlari va ularning turlari.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 7 | So'roq gapning tuzilishi. | Intonatsiya, so'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari va so'roq so'zlar orqali so'roq gaplarning tuzilishi.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 8 | Bog'lamaning to'liq va qisqa shakllarining tuslanishi. | Ast bog'lamasi, uning to'liq va qisqa shakllari hamda ularning imlo qoidalari.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 9 | Fors tilida izofa. | Forsiy izofa va uning imlosi, o'zbek tilidagi qiyosi, o'zbek tiliga o'zlashgan forsiy izofalar.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 10 | Fors tilida ko'plik va izofa zanjiri. | Fors tilida forsiy va arabiy ko'pliklar. Izofa zanjiri, uning o'zbek tilidagi qiyosi, izofa zanjirida kishilik va ko'psatish olmoshlari.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 11 | Fors tilida egalikning ifodalanishi. Miqdor va tartib sonlar. | Fors tilida egalik qo'shimchalari, ularning ifodalanishi, mol so'zi va az on birikmasi. Fors tilida son, ularning yozuvda ifodalanishi, miqdor sonlar va tartib sonlar. O'zbek tiliga o'zlashgan miqdor sonlar.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 12 | Fors tilida fe'l. O'tgan zamon aniq fe'li. | Fors tilida fe'l, fe'lning noaniq shakli, fellarning tuzilishiga ko'ra turlari, fe'l asoslari, o'tgan zamon aniq fe'li, uning yasalishi, bo'lishli va bo'lishsiz shakllari.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 13 | Fors tilida predloglar. | Fors tilida predloglar, predloglarning tuzilishiga ko'ra turlari.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 14 | Fors tilida predloglar. | Asosiy, izofali va murakkab (*izofali va izofasiz murakkab predloglar*) predloglar.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| 15 | Matnlar tarjima qilish. | Eronda nashr qilingan va o'tilgan mavzularga doir matnlar tarjima qilish.<br>**Mavzu yuzasidan referat tayyorlash.** | 4 |
| | | **Jami:** | **60 s.** |

## 7. O‘QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

### Asosiy adabiyotlar:

1.Abdusamadov M. Fors tili. –T.: Sharq, 2007 y.
2.Anousha Shahsavari, Blake Atwood, Persian of Iran today. An introductory course, Volume 1,2. Texas, 2015 y.
3.Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001 г.

### Qo‘shimcha adabiyotlar:

1.Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili. –T., 2009 y.
2.Ovchinnikova I.K., Ivanov V.B. Uchebnik persidskogo yazika. - M., 2002 y.
3.Muin M. Farhang-e fārsi. 2 jild. - Tehron, 1371 h-y.
4.Forscha - o‘zbekcha o‘quv lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1988 y.
5.O‘zbek tilining fors-tojikcha o‘zlashmalar lug‘ati. Farg‘ona. 2022 y.

### Internet saytlari:

1. http://library.ziyonet.uz/uz/book/35164
2. http://library.ziyonet.uz/uz/book/35149
3. http://library.ziyonet.uz/uz/book/41245
4. http://library.ziyonet.uz/uz/book/40578
5. http://library.ziyonet.uz/uz/book/34135

### Amaliy mashg‘ulot mavzulari yuzasidan video darslarning elektron manzillari:

https://youtu.be/JmppA6m9rW8 -Kelishiklarning ifodalanishi (Fors tili) G‘oziyev A

https://youtu.be/mRfOJ9BiMjA Otlarda son kategoriyasi (Fors tili) G‘oziyev A

https://youtu.be/nLzSxoq1HuQ Ot kesimli sodda yig'iq gap (Fors tili) G‘oziyev A

https://youtu.be/WOyHNt4Iyas Munfasil harflar (Fors tili G‘oziyev A

https://youtu.be/6YNWWx8Fy28 Izofa (Fors tili) Turdiyeva H

https://youtu.be/RTiEAII2Ke0 Muttasil harflar (Fors tili) Turdiyeva H

https://youtu.be/RfzefyZtqv4 O‘tgan zamon aniq fe'li (Fors tili) Turdiyeva H

https://youtu.be/El_lho1qaII Bog‘lamaning tuslanishi (Fors tili) Oydin To‘ychiyeva

https://youtu.be/_9qCnoDcymk So‘roq gapning tuzilishi. Oydin To‘ychiyeva

https://youtu.be/zm5E16g5afE Fors tilida unlilar (Fors tili) Turdiyeva H

### Ilmiy jurnallar:

1. **Sharq mash’ali**. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-uslubiy ma’ishiy jurnali.



2. **Sharqshunos**. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-uslubiy ma’ishiy jurnali.
3. **Oltin bitiklar**. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy jurnali.

### Ilmiy tadqiqot ishlari:

1. Юсупов М. Типы изафетных конструкций в прозаических произведениях Алишера Наваи: Дисс. канд. фил. наук. – Ташкент.1984.
2. Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши: Филол. фанл. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2007.

### Ilmiy maqolalar:

1. Ahmedova D. Fors tili publitsistik uslubida ot va sifat so‘z turkumlarining uslubiy - funksional xususiyatlari va ularning tarjimada berilishi. https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-117-124
2. Иванова А. Изафетные конструкции в чувашском языке: типологический аспект // Европейский журнал социальных наук. 2011, №8
3. Ҳакимов Д. Ўзбек тили лексикасида изофий бирикмалар тизими. Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, №4.

## 8. O‘QUV DASTURI HAQIDA MA’LUMOT

| |
|---|
| O‘quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “___” “______” dagi “ ___” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **“Xorijiy tillar”** kafedrasi mudiri, PhD<br>N.Rashidova _______________ *(imzo)* |
| **Tuzuvchi:**<br>A.G‘oziyev _______________ *(imzo)*<br>“Xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi. |
| **Taqrizchilar:**<br>Mahmudov U. _______________ *(imzo)*<br>SXTU O‘zbek tili madaniyati markazi rahbari, dotsent, PhD<br>H.Turdiyeva _______________ *(imzo)*<br>Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent |